



«5» may 2023-y.

04-04/2-366-son

«__» _____ 2023 y.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirligi, Toshkent shahar va
viloyatlar maktabgacha va maktab
ta’limi boshqarmalari
boshliqlariga**

**Tuman (shahar) maktabgacha va
maktab ta’limi bo‘limi
mudirlariga**

**Respublika umumta’lim
muassasalari rahbarlariga**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2023-yil 16-martdagi 04-04/2-119-sonli xatida “Kundalik” elektron sinf jurnalida baholarni qo‘yish va o‘zgartirish tartibiga muvofiq tizimda 2023-yilning 15-aprelidan cheklov (muzlatish) o‘rnatilishi, hamda kiritilgan chorak va yillik baholarga maktabgacha va maktab ta’limi hududiy boshqarmalariga rasmiy xatsiz o‘zgartirish kiritish imkoniyati mavjud emasligi belgilab qo‘yilgan.

“Kundalik” elektron sinf jurnaliga o‘z vaqtida qo‘yilmagan joriy, chorak va yillik baholar ustunidagi kamchiliklarni bartaraf etish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) fan o‘qituvchisi nima sababdan va qaysi sana ustuniga baho qo‘ymaganligini batafsil ifodalab maktab direktori nomiga tushuntirish xati yozgan holda yozma murojaat qiladi;

b) maktab direktori va direktorning o‘quv ishlar bo‘yicha o‘rinbosari fan o‘qituvchilaridan tushgan yozma murojaatlar asosida o‘z vaqtida qo‘yilmagan joriy, chorak va yillik baholar ustunidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha hamda Xalq ta’limi vazirining (Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi) 2022-yil 24-iyundagi 205-son buyrug‘ining 7-bandida ko‘rsatilgan funksional vazifalariga sovuqqonlik bilan qaragani, o‘z majburiyatlarini to‘liq bajarmaganligini ifodalab tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi mudiri nomiga tushuntirish xati yozgan holda yozma murojaat qiladi;

d) maktab direktorlaridan tushgan yozma murojaatlar asosida tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mudiri kamchilikka yo'l qo'ygan rahbar xodimlar va pedagog kadrlar ishtirokida tanqidiy ko'rinishda kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha muhokama yig'ilishini o'tkazadi. Muhokama yig'ilishi bayonnoma shaklida rasmiylashtiriladi.

Bayonnoma qarorida:

– o'z vaqtida baho qo'yishga ulgurilmagan, tizimda muzlatilgan ustun sanasi, o'quvchining sinfi, F.I.Sh va bahosi ko'rsatilib, ushbu sanaga baho qo'yish imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiq deb topilishi;

– muhokama yig'ilishi bayonnomasining nusxasi tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mudiri nomidan rasmiy xat bilan hududiy boshqarmaga taqdim etilishi kerakligi ko'rsatib o'tilishi kerak.

e) Muhokama yig'ilishi bayonnomasining nusxasi hududiy boshqarma tomonidan rasmiy tarzda Vazirlikka taqdim etilganidan so'ng muzlatilgan ustundagi yo'l qo'yilgan kamchiliklar bartaraf etiladi.

Shu bilan birgalikda, 2023-yil 6-martdagi 46-sonli buyrug'i bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 9-sinf o'quvchilari uchun "jismoniy tarbiya" fanidan yakuniy nazorat imtihonlari o'tkazilish muddatlari joriy yilning 1-6 may kunlari etib belgilangan. Hozirgi kunda umumta'lim muassasalarida yakuniy davlat attestatsiyasi doirasida "jismoniy tarbiya" fanidan imtihonlar bo'lib o'tmoqda. Bu esa o'z navbatida ushbu kunda boshqa fanlardan rejalashtirilgan mavzularni boshqa kunlarda tig'izlashtirilgan holda o'tishni taqozo qilmoqda.

Shu sababli, Sizga mazkur fandan nazorat imtihonlari o'tkaziladigan kunda to'g'ri kelib o'tilmay qolgan barcha fan mavzularini kelgusi haftadagi dars davomida tig'izlashtirib o'tish maqsadga muvofiqligi va "Kundalik" sinf jurnalida ilovada ko'rsatilgan vazifalarni bajarishingiz tavsiya etiladi.

Ilova: ___ varaq.

Vazir o'rinbosari



U.Begimkulov